

Nostrifikatsiyalash bo'yicha maxsus sinovlarni o'tkazish va ekspert komissiyalarining yig'ilish jadvali

2014 yilda har haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlari soat 10-00 dan 16-00 gacha Davlat test markazi (DTM)da xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) masalalari bo'yicha fuqarolar qabul qilinadi.

Hujjat egasi yoki manfaatdor tashkilot xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va ularning ekvivalentligini qayd etish haqidagi ariza (bevosita DTMDa to'ldiriladi) bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

ma'lumot to'g'risidagi hujjat va uning ilovasini asl nusxasi;

ma'lumot to'g'risidagi hujjat va uning ilovasini O'zbekiston Respublikasi davlat tiliga notarial tasdiqlangan tarjimai.

Ariza beruvchi, shuningdek, o'z tayyorgarligi haqida boshqa hujjatlarni, jumladan, ta'lim olishning keyingi darajalari, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish mumkinligi, amaliy tajriba haqidagi qo'shimcha hujjatlarni ham taqdim etishi mumkin. Tan olish va ekvivalentligini qayd qilish uchun zarur bo'lgan materiallar O'zbekiston Respublikasi davlat tiliga notarial tasdiqlangan tarjimalari bilan taqdim etilishi lozim. Lozim bo'lgan hollarda DTM tomonidan tegishli o'quv yurti, mahalliy va xorijiy tashkilotlardan aniqlashtiruvchi hujjatlar so'rab olinishi mumkin.

Hujjatlar DTM huzurida Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi va Adliya vazirliklari, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda tashkil etiladigan ekspert komissiyalari tomonidan ko'rib chiqiladi. Ekspertiza davlat ta'lim standartlari, ta'lim muassasasini o'zlari joylashgan davlatlarda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilish haqidagi hujjat, o'quv rejalari, fan dasturlari, malaka tavsifnomalari va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab bir oydan oshmagan muddatda ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni ekvivalentligi yoki uni rad etish haqida tegishli qaror qabul qilinadi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash bo'yicha ekspert komissiyalarining yig'ilish o'tkaziladigan kunlari va maxsus sinovlarni o'tkazish kunlari jadvali

Ekspert komissiyasining nomi	Ekspert komissiyasi yig'ilish o'tkaziladigan kunlar va boshlanish vaqti	Maxsus sinov o'tkaziladigan kunlar va sinovning boshlanish vaqti
“Huquqshunoslik” sohasi bo'yicha ekspert komissiyasi	2014 yil 27 yanvar, 24 fevral, 24 mart, 21 aprel, 26 may, 23 iyun, 22 sentyabr, 27 oktyabr, 24 noyabr, 22 dekabr kunlari soat 16-00da	2014 yil 27 yanvar, 24 fevral, 24 mart, 21 aprel, 26 may, 23 iyun, 22 sentyabr, 27 oktyabr, 24 noyabr, 22 dekabr kunlari soat 14-00da

“Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot” sohasi bo‘yicha ekspert komissiyasi	2014 yil 28 yanvar, 25 fevral, 25 mart, 22 aprel, 27 may, 24 iyun, 23 sentyabr, 28 oktyabr, 25 noyabr, 23 dekabr kunlari soat 15-00da	2014 yil 28 yanvar, 25 fevral, 25 mart, 22 aprel, 27 may, 24 iyun, 23 sentyabr, 28 oktyabr, 25 noyabr, 23 dekabr kunlari soat 14-00da
“Iqtisodiyot” ijtimoiy ta‘minot” sohasi bo‘yicha ekspert komissiyasi	2014 yil 29 yanvar, 26 fevral, 26 mart, 23 aprel, 28 may, 25 iyun, 24 sentyabr, 29 oktyabr, 26 noyabr, 24 dekabr kunlari soat 16-00da	2014 yil 29 yanvar, 26 fevral, 26 mart, 23 aprel, 28 may, 25 iyun, 24 sentyabr, 29 oktyabr, 26 noyabr, 24 dekabr kunlari soat 14-00da
“Qishloq ho‘jaligi, muxandislik, ishlov berish va qurilish sohalari” bo‘yicha ekspert komissiyasi	2014 yil 30 yanvar, 27 fevral, 27 mart, 24 aprel, 29 may, 26 iyun, 25 sentyabr, 30 oktyabr, 27 noyabr, 25 dekabr kunlari soat 15-00da	2014 yil 30 yanvar, 27 fevral, 27 mart, 24 aprel, 29 may, 26 iyun, 25 sentyabr, 30 oktyabr, 27 noyabr, 5 dekabr kunlari soat 14-00da
“O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogik fanlar” sohasi bo‘yicha ekspert komissiyasi	2014 yil 31 yanvar, 28 fevral, 28 mart, 25 aprel, 30 may, 27 iyun, 26 sentyabr, 31 oktyabr, 28 noyabr, 26 dekabr kunlari soat 14-00da	2014 yil 31 yanvar, 28 fevral, 28 mart, 25 aprel, 30 may, 27 iyun, 26 sentyabr, 31 oktyabr, 28 noyabr, 26 dekabr kunlari soat 10-00da

Izoh: Ekspert komissiyalarining yig‘ilishlari va maxsus sinovlar DTM binosida o‘tkaziladi. Belgilangan vaqtdan kechikib kelgan talabgorlar sinovga kiritilmaydi.

Maxsus sinovlarda va ekspert komissiyasi yig‘ilishlarida qatnashishga ro‘yxatdan o‘tish uchun fuqarolar DTM direktori nomiga o‘zlarining pochta indeksleri, uy manzili, bog‘lanish telefoni, o‘qigan ta‘lim muassasasining nomi, mutaxassisligi, DTMdan berilgan tilxat raqami hamda sinovni qaysi tilda topshirishini aniq ko‘rsatgan holda belgilangan kundan kamida bir hafta oldin ariza berishlari lozim.

Arizalar pochta yoki faks orqali ham yuborilishi mumkin. Ro'yxatga kiritilgan talabgorlar pasport hamda DTMDan berilgan tilxatni shaxsan taqdim etgan holda sinovga va ekspert komissiyasi yig'ilishlariga qo'yiladilar.

Maxsus sinovlarni tashkil etish va o'tkazish uchun talab etiladigan vaqt ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni ekvivalentligi yoki uni rad etish haqida qaror qabul qilish uchun belgilangan muddatga kirmaydi.

DIQQAT!

1. 1992 yil 1 yanvardan keyin xorijiy davlatlar ta'lim muassasalariga o'qishga kirib, "BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI" va "TARIX" ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan diplomlar O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari va ta'limga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelmasligi sababli O'zbekiston Respublikasi hududida tan olinmaydi va nostrifikatsiya qilinmaydi.

2. 2004 yil va undan keyin xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limiga o'qishga kirgan fuqarolarning diplomlari O'zbekiston Respublikasi hududida tan olinmaydi va nostrifikatsiya qilinmaydi.

3. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni nostrifikatsiyalash bo'yicha "O'qituvchilar tayyorlash va pedagogik fanlar" sohasi ekspert komissiyasining 2013 yil 1 noyabrdagi qaroriga asosan 2014 yil 1 yanvardan boshlab "O'zbekiston tarixi" fanidan 55 baldan past ball to'plagan talabgorlar "Og'zaki suhbat"ga kiritilmaydi.